PERSONIFIKATSIYANING BADIIY NUTQDAGI FUNKSIONAL-STILISTIK XUSUSIYATLARI (MUHAMMAD YUSUF IJODI MISOLIDA)

https://doi.org/10.70728/phil.v05.i03.029

Mo‘minova Malika Rashidovna
dobloqulova68@gmail.com
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqolada personifikatsiyaning badiiy nutqdagi o‘rni, uning lingvostilistik va semantik xususiyatlari kompleks tarzda tahlil qilinadi. Personifikatsiya jonsiz narsalar, tabiat hodisalari va mavhum tushunchalarga insoniy xususiyatlar berish orqali tasvirni jonlantiruvchi muhim badiiy vosita sifatida talqin etiladi. Tadqiqotda stilistik, semantik va kontekstual tahlil metodlari asosida Muhammad Yusuf she’riyati materiallari o‘rganildi. Natijada personifikatsiyaning obraz yaratish, estetik ta’sirni kuchaytirish hamda muallifning individual uslubini shakllantirishdagi roli asoslab berildi.

Kalit so‘zlar: personifikatsiya, stilistika, badiiy nutq, obrazlilik, shaxslantirish, poetik til, Muhammad Yusuf

FUNCTIONAL AND STYLISTIC FEATURES OF PERSONIFICATION IN LITERARY DISCOURSE (BASED ON THE WORKS OF MUHAMMAD YUSUF)

Mo‘minova Malika Rashidovna
dobloqulova68@gmail.com
Tashkent University of Information Technologies named after Muhammad al-Khwarizmi

Abstract: This article examines the role of personification in literary discourse and provides a comprehensive analysis of its linguo-stylistic and semantic features. Personification is interpreted as an important artistic device that enlivens description by attributing human qualities, actions, and emotions to inanimate objects, natural phenomena, and abstract concepts. The study is based on stylistic, semantic, and contextual analysis of poetic texts by Muhammad Yusuf. The results demonstrate that personification plays a significant role in creating imagery, enhancing aesthetic impact, and shaping the author’s individual style.

(cc) BY

Keywords: personification, stylistics, literary discourse, imagery, anthropomorphism, poetic language, Muhammad Yusuf

Zamonaviy tilshunoslik va adabiyotshunoslikda badiiy nutqni o‘rganish muhim ilmiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Badiiy matnning ta’sirchanligi, obrazliligi va estetik qiymati ko‘p jihatdan unda qo‘llanilgan tasviriy vositalarga bog‘liq. Shunday vositalardan biri - personifikatsiyadir.

Personifikatsiya badiiy tafakkurning mahsuli sifatida inson va borliq o‘rtasidagi munosabatni aks ettiradi. Inson tabiatni anglash jarayonida unga o‘ziga xos xususiyatlarni yuklaydi. Shu bois personifikatsiya nafaqat stilistik, balki kognitiv hodisa sifatida ham qaraladi.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundaki, personifikatsiya masalasi nazariy jihatdan keng o‘rganilgan bo‘lsa-da, uning o‘zbek she’riyati, xususan Muhammad Yusuf ijodidagi funksional xususiyatlari yetarlicha tizimli tahlil qilinmagan.

Personifikatsiya badiiy adabiyotda qo‘llaniladigan muhim stilistik vositalardan biri hisoblanadi. U jonsiz narsalar, tabiat hodisalari, hayvonlar yoki mavhum tushunchalarga insonlarga xos xususiyat, harakat yoki hissiyotlarni berish orqali tasvirni jonlantirish usulidir. Mazkur atama lotin tilidagi *persona* - “inson, shaxs” va *facere* - “qilmoq, yaratmoq” so‘zlaridan kelib chiqqan bo‘lib, “insonlashtirish” yoki “insoniy xususiyat berish” ma’nosini anglatadi (Abrams & Harpham, 2015, p. 119).

Adabiyotshunoslikda personifikatsiya badiiy obraz yaratishning samarali vositasi sifatida qaraladi. Ushbu usul orqali muallif tabiat hodisalari yoki jonsiz predmetlarni go‘yo tirik mavjudot sifatida tasvirlaydi. Natijada tasvir yanada jonli, obrazli va ta’sirchan ko‘rinish kasb etadi. Personifikatsiya o‘quvchining tasavvurini faollashtirib, matnning estetik ta’sir kuchini oshiradi.

Personifikatsiya ayniqsa she’riy asarlarda keng qo‘llaniladi. Shoirlar tabiat manzaralarini tasvirlashda yoki muayyan ruhiy holatni ifodalashda tabiat hodisalariga insoniy xususiyatlarni yuklaydilar. Masalan, “shamol kuylaydi”, “quyosh kuladi”, “daraxtlar shivirlaydi” kabi ifodalar orqali tabiat hodisalari inson faoliyatiga qiyoslab tasvirlanadi. Bunday tasvirlar asarning badiiy ifodaviyligini kuchaytiradi.

Nasriy asarlarda ham personifikatsiya muhim stilistik funksiyani bajaradi. Yozuvchilar muhit, tabiat yoki voqea rivojini tasvirlash jarayonida jonsiz narsalarni jonli obraz sifatida talqin qilish orqali matnning badiiy ta’sirini kuchaytiradilar. Bu esa o‘quvchiga asardagi voqelikni yanada aniqroq va hissiyroq idrok etish imkonini beradi.

Ko‘plab adabiyotshunos olimlar personifikatsiyani badiiy nutqning muhim tasviriy vositasi sifatida baholaganlar. Rus adabiyotshunosi Viktor Vinogradov personifikatsiyani badiiy nutqda obrazlilikni kuchaytiruvchi stilistik vosita sifatida ta’riflaydi. Uning fikricha, personifikatsiya orqali tabiat hodisalari yoki jonsiz

(cc) BY

predmetlar go‘yo tirik mavjudot sifatida tasvirlanadi va bu hol badiiy matnning estetik ta’sirini oshiradi (Vinogradov, 1971, p. 56).

Tilshunos olim Roman Jakobson ham badiiy nutqda obrazli ifoda vositalarining ahamiyatini ta’kidlab, personifikatsiya tasvirni jonlantirish va o‘quvchining tasavvurini faollashtirishga xizmat qilishini qayd etgan(Jakobson, 1987, p. 378). O‘zbek adabiyotshunosligida ham personifikatsiya masalasi o‘rganilgan. Masalan, mashhur adabiyotshunos Izzat Sulton badiiy tasvir vositalari haqida so‘z yuritar ekan, personifikatsiya tabiat manzaralarini jonli tarzda tasvirlashda muhim vosita ekanini ta’kidlaydi. Uning fikricha, personifikatsiya yordamida muallif tabiat va inson ruhiyati o‘rtasidagi uyg‘unlikni badiiy tarzda ifodalay oladi(Sulton, 1980, b. 92).

Shuningdek, o‘zbek tilshunosi Abduaziz Abdurahmonov stilistika masalalarini o‘rganar ekan, personifikatsiyani badiiy nutqning ifodaviylik darajasini oshiruvchi tasvir vositalaridan biri sifatida ko‘rsatadi(Abdurahmonov, 1996, b. 134).

Adabiyotshunoslikda personifikatsiya bir necha ko‘rinishlarga bo‘linadi. Ular tasvir obyektiga va berilgan insoniy xususiyat turiga qarab farqlanadi. Quyida esa biz ularga bir bir to‘xtalib o‘tamiz.

1. Tabiat hodisalarini personifikatsiya qilish.

Bu turda shamol, quyosh, oy, daryo, yomg‘ir kabi tabiat hodisalariga insoniy harakat yoki hissiyot yuklanadi. Masalan: “shamol kuyladi”, “quyosh kulib boqdi”, “daryo shoshilib oqdi”.

2. Jonsiz predmetlarni personifikatsiya qilish.

Bunda turli buyumlar yoki predmetlarga insoniy xususiyatlar beriladi. Masalan: “eski uy sukutda o‘ylardi”, “ko‘chalar uyg‘ondi”.

3. Mavhum tushunchalarni personifikatsiya qilish.

Bu turda vaqt, baxt, g‘am, sevgi, umid kabi mavhum tushunchalar inson sifatida tasvirlanadi. Masalan: “baxt menga kulib boqdi”, “g‘am yuragimni siqdi”.

4. Hayvonlarni personifikatsiya qilish.

Ba’zi badiiy asarlarda hayvonlarga ham insoniy xatti-harakat, nutq yoki fikrlash xususiyati beriladi. Bu holni esa biz ayniqsa ertak va masallarda ko‘p uchratishimiz mumkin.

Tulki boshini chayqab yurdi va dedi:

-Ko‘zacha, hazillashding, endi yetar. Meni qo‘yib yubor. (Tulki va ko‘zacha ertagidan)

Turli shoirlar ijodi personifikatsiya orqali boyitilganligiga guvoh bo‘lamiz shu jumladan, Muhammad Yusuf ijodida ham unda bunda shaxslantirish hodisasiga duch keldik. Birgina “Azizimsan” sherida besh o‘rinda bu hodisaning kelganligiga guvoh bo‘lamiz va bundan biz ijodkorning asosiy ish quroli boshqa badiiy tasviriy vositalar bilan bir qatorda personifikatsiya kata o‘rin egallaydi degan xulosaga kelishimiz mumkin.

(cc) BY

Bilib yurar, ko‘rib turadi,
Quzgun-ajal topar bexato.

Ushbu misrada personifikatsiya badiiy tasvir vositasi yaqqol ifodalangan. Personifikatsiya orqali jonsiz yoki mavhum tushunchalarga insonlarga xos xususiyatlar beriladi. Mazkur misrada “ajal” tushunchasi shunday usul orqali tasvirlangan. Birinchi misrada “bilib yurar, ko‘rib turadi” iboralari insonning ongli faoliyatini ifodalaydi. Bilish va ko‘rish kabi harakatlar odatda insonga xos bo‘lgan xususiyatlardir. Muallif esa bu xususiyatlarni ajal tushunchasiga ko‘chirib, uni go‘yo tirik mavjudot kabi tasvirlaydi. Ikkinchi misrada “quzgun-ajal” birikmasi orqali o‘lim obrazli tarzda ifodalanadi. Qarg‘a yoki quzg‘un ko‘pincha adabiyotda o‘lim, fojea yoki kulfat ramzi sifatida talqin qilinadi. Shu sababli “quzgun-ajal” iborasi o‘limning muqarrarligini va uning insonni aniq topishini obrazli tarzda ifodalaydi. “Topar bexato” degan ifoda esa o‘limdan hech kim qochib qutula olmasligini, u baribir o‘z manzilini topishini anglatadi. Demak, ushbu misrada personifikatsiya orqali ajalga insoniy xususiyatlar - bilish, ko‘rish va topish qobiliyati berilgan. Bu esa o‘limning muqarrarligini, undan yashirinish yoki qochish mumkin emasligini ta’sirchan badiiy shaklda ifodalashga xizmat qilgan. Endi bu sherning davomiga nazar tashlaymiz:

Yillar bizni o‘rib turadi,
Uyda, yo‘lda, shoshib shoshmasdan

Mazkur misralarda “yillar” tushunchasi personifikatsiya orqali insoniy harakat bilan tasvirlangan. Natijada vaqtning inson hayotiga ta’siri, umrning asta-sekin o‘tib borishi va hayotning o‘tkinchiligi obrazli hamda ta’sirchan tarzda ifodalangan. Birinchi misrada “yillar bizni o‘rib turadi” degan ifoda ishlatilgan. Aslida “o‘rmoq” harakati inson tomonidan bajariladigan ish bo‘lib, odatda hosilni yoki o‘simlikni o‘rishga nisbatan qo‘llanadi. Muallif esa bu harakatni yillar tushunchasiga nisbatan ishlatib, vaqtning inson umrini asta-sekin qisqartirib borishini obrazli tarzda ifodalagan. Bu yerda yillar go‘yo inson hayotini o‘rib borayotgan kuch sifatida tasvirlanadi.

Ikkinchi misrada “uyda, yo‘lda, shoshib-shoshmasdan” iborasi orqali vaqtning doimiyligi va muqarrarligi ta’kidlanadi. Ya’ni vaqt inson qayerda bo‘lishidan qat’i nazar - uyda bo‘ladimi yoki yo‘lda - baribir o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. “Shoshib-shoshmasdan” degan ifoda esa vaqtning tinimsiz, ammo sezilmas tarzda o‘tishini anglatadi.

Sen abadiy yashaysan, she’rim

Ushbu misrada “she’rim” so‘zi jonsiz tushuncha bo‘lsa ham, shoir uni tirik mavjudot sifatida tasvirlaydi. Aslida she’r yashamaydi, u faqat yozilgan badiiy matndir. Ammo shoir unga “abadiy yashaysan” degan insoniy xususiyatni beradi. Ana shu holat personifikatsiya - ya’ni jonlantirish san’atini yuzaga keltiradi. Bu yerda shoir o‘z she’riga murojaat qilib, uni go‘yo insondek tasavvur qiladi. Natijada she’r

(cc) BY

shoirning ruhiy davomchisi, uning fikr va tuyg‘ularini kelajak avlodlarga yetkazuvchi tirik meros sifatida namoyon bo‘ladi. Shoir bu tasvir orqali muhim falsafiy g‘oyani ilgari suradi: inson hayoti o‘tkinchi, ammo ijod abadiy. Ya’ni shoirning o‘zi bu dunyodan ketishi mumkin, biroq uning yozgan she’rlari xalq orasida yashab qoladi. Shu sababli u o‘z she’riga “abadiy yashaysan” deb murojaat qiladi.

Bundan tashqari, yuqorida sanab o‘tilgan personifikatsiyaning turlari ichida tabiat hodisalaning shaxslantirilishiga ham M.Yusuf ijodida juda ko‘p marotaba duch kelamiz va shoirning she’rlarini bezab turgan bu hodisaga boshqa badiiy tasviriy vositalar singari alohida o‘rin egallaganligini ta’kidlab o‘tmoqchimiz.

Ko‘nglim ayvonida kuz hushtak chalar. (Maktub she’ri).

Qadring bilgan,darding bilgan ayt kiming bor?...

Kelib ketar bahor senga bevafo yor,. (Qizg‘aldog‘im she’ri).

Oftob yelib tolsa kok uzra, unga osmon sandigi hujra.

Haqdan hukm, bandadan ijro, xudo bilar kim oldin ketar (Ruh to‘tisi she’ri)

Misol tariqasida keltirilgan uch she’rda ham shoir mohirona shaxslantirishga murojaat qilganiga guvoh bo‘ldik. Ikki o‘rinda fasllar-bahor va kuz nafaqat jonlantirilayapti va she’rlarni bezab turibdi, balki o‘quvchida tasavvur va hissiyot uyg‘otyapti, matnga jon bag‘ishlayapti. Shoir tabiatni insoniy ruh bilan boyitib, o‘zining poetik tilini shakllantiryapti.

Xulosa qilib shuni takidlashimiz joizki, Muhammad Yusuf ijodida personifikatsiya badiiy nutqning asosiy stilistik vositalaridan biri sifatida ahamiyat kasb etadi. Shoir jonsiz predmetlar, tabiat hodisalari va mavhum tushunchalarga insoniy xususiyatlar berish orqali ularni go‘yo tirik mavjudot sifatida tasvirlaydi. Natijada matn obrazli, estetik jihatdan boy bo‘lib, o‘quvchida chuqur hissiy taassurot uyg‘otadi. Personifikatsiya orqali Muhammad Yusuf tabiat hodisalari va mavhum tushunchalarni o‘zining poetik tilida jonlantirib, matnga obrazlilik va dinamiklik qo‘shadi. Shu bilan birga, bu vosita o‘quvchining tasavvurini faollashtiradi, matnning estetik ta’sirini oshiradi va shoirning individual uslubini namoyon qiladi. Bundan tashqari, personifikatsiya shoirning falsafiy g‘oyalarini ifodalash vositasi sifatida ham xizmat qiladi. Jonsiz predmetlar va tushunchalarga insoniy xususiyatlarni yuklash orqali Muhammad Yusuf ijodida badiiy tasvirning chuqurligi, estetik qiymati va ta’sirchanligi yanada oshadi. Shu bois, personifikatsiya uning she’riyatida obraz yaratish, estetik ta’sir ko‘rsatish va shoirning individual poetik fikrini ifodalashda markaziy rol o‘ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdurahmonov, A. (1996). Stilistika asoslari. Toshkent: O‘qituvchi.

2. Abrams, M. H., & Harpham, G. G. (2015). A glossary of literary terms (11th ed., p. 119). Boston, MA: Cengage Learning.

(cc) BY

3. Jakobson, R. (1987). Language in literature. Cambridge, MA: Harvard University Press.

4. Leech, G. (2008). Language in literature: Style and foregrounding. London: Pearson.

5. Simpson, P. (2004). Stylistics: A resource book for students. London: Routledge.

6. Sulton, I. (1980). Adabiyot nazariyasi. Toshkent: O‘qituvchi.

7. Vinogradov, V. V. (1971). O yazyke khudozhestvennoy literatury. Moscow: Nauka.

8. Wales, K. (2011). A dictionary of stylistics. London: Routledge.

9. Yusuf, M. (2007). Saylanma. Toshkent: Sharq.

10. Yusuf, M. (2014). Saylanma. Toshkent: Sharq.

(cc) BY